



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-iyul

371-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 10-iyuldagi PQ–249-son qarori ijrosi haqida”gi 346-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 10-iyuldagi PQ–249-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi 346-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi 346-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ–249-son qarori bilan:

belgilanishicha, 2024-yil 1-sentyabrdan boshlab elektron do‘kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirishda narx va boshqa sharoitlar teng bo‘lgan hollarda, ilovaga muvofiq mezonlarning biri asosida nogironligi bo‘lgan shaxslar, xotin-qizlar va yoshlarning bandligini ta‘minlagan kichik tadbirkorlik subyektlarining takliflari ustunlikka ega bo‘lishi;

2024-yil 1-sentyabrdan 2025-yil 31-dekabr gacha qadar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB huzuridagi kichik biznesga ko‘maklashish markazlari (keyingi o‘rinlarda markazlar) yordamida ishlab chiqilgan loyihalar doirasida import qilinadigan asbob-uskunalarini sug‘urtalash hamda xomashyo va materiallarni sertifikatlash xarajatlarining 50 foizigacha qismini, biroq bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan oshmagan miqdorda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi joriy etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-son qarori bilan 2026-yil 1-yanvarga qadar davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilingan kichik tadbirkorlik subyektlariga o‘zlari ishlab chiqargan tovarlarni (mahsulotlarni) davlat buyurtmachilariga bir moliya yili davomida jami 10 milliard so‘mgacha qiymatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida sotishga ruxsat berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq markazlar davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida tashkil qilinadigan kichik tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik loyihalari doirasida quyidagilarga amaliy ko‘mak berishi:

asbob-uskunalar va texnologiyalarni tanlash, xarid qilish va o‘rnatish; markazlarda tashkil qilingan amaliy o‘quv kurslarida biznesni tashkil etish hamda yuritish bilan bog‘liq yo‘nalishlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarini o‘qitish;

davlat ishtirokidagi yirik korxonalarining ishlab chiqarish maydonlarida kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarini kasb-xunarga o‘qitish va malakasini oshirish;

kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun ularni davlat xaridlari tizimiga keng jalb qilish;

belgilab qo'yilishicha, davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va ushbu tizimda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida 2024-yil 1-oktyabrdan boshlab:

davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar ular tuzilishidan oldin kamida bir ish kuni, shuningdek, tender savdolari natijalariga ko'ra rasmiylashtirilgan bayonnomalar davlat xaridlari maxsus axborot portaliga joylashtirish orqali kamida ikki ish kuni davomida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilishi;

yagona yetkazib beruvchilar reestriga bozorda muqobillari bo'lmagan va texnik jihatdan murakkab tovarlarni yetkazib beruvchilar Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi xulosasi asosida kiritilishi;

davlat xaridlari elektron tizimiga ushbu tizimdan ro'yxatdan o'tgan yuqori barqarorlik reytingiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini ular tomonidan ishlab chiqariladigan (yetkazib beriladigan) tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) mos keladigan davlat buyurtmasining tizimga joylashtirilganligi to'g'risida xabardor qilish funksiyasi kiritilishi;

davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari tomonidan davlat buyurtmachilari va xarid qilish tartib-taomillari ijrochilariga shartnomalarni bajarish vaqtida kelib chiqadigan sudgacha bo'lgan nizolarning belgilangan tartibda hal etilishida ko'maklashish amaliyoti yo'lga qo'yilishi;

tender savdolarida bitta tadbirkorlik subyekti ishtirok etgan taqdirda, davlat buyurtmachisi xarid qilish tartib-taomilini hamda tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) oid mezonlarni o'zgartirmagan holda takroran e'lon joylashtirganda va takroriy tender savdolarining yagona ishtirokchisi ilgari ishtirok etgan tadbirkorlik subyekti bo'lganda, tender savdolari o'tkazilgan deb hisoblanishi;

ushbu tartib "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan talablarga mos kelmaydigan va taklifni tegishli tarzda rasmiylashtirmagan tender ishtirokchilariga tatbiq etilmasligi;

Korporativ buyurtmachilarning ishlab chiqarish faoliyati uzluksizligini ta'minlash maqsadida 2024-yil 1-sentyabrdan boshlab:

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, shuningdek, ularning tarkibidagi xo'jalik jamiyatlari kuzatuv kengashlarining davlat xaridlari yillik va choraklik reja-jadvallari hamda import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlari muhim fakt sifatida oshkor qilib borilishi;

davlat xaridlari maxsus axborot portalida korporativ buyurtmachilarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'ladigan tovarlarni mahalliyashtirish orqali kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan o'z takliflarini berish imkoniyati yaratilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari belgilansin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov